

CHERRI POMIDORNI OCHIQ DALADA YETISHTIRISHNING TEXNOLOGIYASI

Saidov Mahmud Amonovich,

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatining keskin kontinental iqlimi sharoitida cherry pomidorining Fazilat navini ochiq maydonda turli agrotexnologik usullarda yetishtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida o'simlikni oddiy usulda, soyalatish to'rlari ostida, tirgovuchlarda va shpalera tizimida yetishtirishning biometrik ko'rsatkichlari hamda hosildorlikka ta'siri qiyosiy o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, intensiv texnologiyalarni qo'llash o'simlikning o'sish quvvatini va hosil miqdorini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: Cherry pomidor, Fazilat navi, ochiq dala, shpalera, soyalatish to'ri, biometrik ko'rsatkichlar, hosildorlik.

Kirish

Bugungi kunda jahon bozorida iste'molchilarga sifatli va vitaminlarga boy sabzavot mahsulotlarini yetkazib berish qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishlaridan biridir. Cherry pomidorlari o'zining kichik hajmi, yuqori shirinlik darajasi va dekorativ ko'rinishi bilan alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, Buxoro viloyati kabi issiq va quruq iqlim sharoitida ushbu ekinni ochiq maydonda muvaffaqiyatli yetishtirish uchun an'anaviy usullardan voz kechib, zamonaviy agrotexnik tadbirlarni qo'llash talab etiladi.

Tadqiqotning maqsadi — cherry pomidorini vertikal spalerada o'stirish va quyosh radiatsiyasidan himoya qilish orqali maksimal hosildorlikka erishish imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

2. Tadqiqot metodikasi va materiallari

Tadqiqot ishlari 2022–2024 yillar davomida Buxoro viloyati sharoitida olib borildi. Tajriba ob'ekti sifatida cherry pomidorining "Fazilat" navi tanlandi.

Tajriba variantlari quyidagicha belgilandi:

Ochiq dala (nazorat): Hech qanday yordamchi vositalarsiz, o'simlik poyasi yerda yotgan holda o'stirish.

Egatlar ustidan soyalatish: Quyosh nuri intensivligini kamaytirish uchun to'r (setka) qo'llash.

Tirgovuchlar yordamida o'stirish: Poyani yog'och tirgovuchlarga bog'lab o'stirish.

Shpalera o'stirish: O'simlikni maxsus yo'gosch konstruktsiyaga bog'lab o'stirish.

Shpalera + setka bilan soyalatish: Eng maqbul texnologik variant.

O'simliklarning rivojlanishi (poya balandligi, barg va gullar soni) hamda yillar kesimidagi hosildorlik ko'rsatkichlari har bir variantda alohida qayd etib borildi.

Natijalar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yetishtirish texnologiyasi o'simlikning yer ustki vegetativ organlari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, shpalera usulida o'stirilgan o'simliklar nazorat variantiga nisbatan poya balandligi bo'yicha 9,4 sm ga, barglar soni bo'yicha 14,4 donaga ko'p ko'rsatkichlar qayd etilgan. Bu holat o'simlikning havo aylanishi yaxshi bo'lgan muhitda va optimal yorug'lik sharoitida rivojlanganligidan dalolat beradi (1-jadval).

Jadval 1.

Buxoro viloyati sharoitida ochiq maydonda yetishtirilgan cherri pomidorining Fazilat navi biometrik ko'rsatkichlari (2022–2024 yy.)

Yetishtirishning texnologik usuli	Asosiy poya balandligi, sm	Yon shoxlar soni, dona	Barglar soni, dona	Gullar soni, dona	Meva tugunchalari soni, dona
Ochiq dala (nazorat)	66,7	3,7	79,9	47,6	42,5
Egatlar ustidan soyalatish	68,0	3,7	83,0	50,2	44,4
Tirgovuchlar yordamida o'qitirish	70,3	4,0	86,8	51,8	46,6
Tirgovuchlar + setka bilan soyalatish	72,9	4,2	91,1	54,5	48,7
Shpalera o'qitirish	73,9	4,3	93,2	56,3	50,2
Shpalera + setka bilan soyalatish	77,4	4,5	97,4	60,4	53,4
Yetishtirishning texnologik usuli	Asosiy poya balandligi, sm	Yon shoxlar soni, dona	Barglar soni, dona	Gullar soni, dona	Meva tugunchalari soni, dona
Ochiq dala (nazorat)	66,7	3,7	79,9	47,6	42,5
Egatlar ustidan soyalatish	68,0	3,7	83,0	50,2	44,4

Tirgovuchlar yordamida o'qitish	70,3	4,0	86,8	51,8	46,6
Tirgovuchlar + setka bilan soyalatish	72,9	4,2	91,1	54,5	48,7
Shpalera o'qitish	73,9	4,3	93,2	56,3	50,2
Shpalera + setka bilan soyalatish	77,4	4,5	97,4	60,4	53,4

Hosildorlik ko'rsatkichlari texnologik usulning murakkablashishi bilan ortib borgani kuzatildi (2-jadval).

Jadval 2.

Buxoro viloyati sharoitida ochiq maydonda yetishtirilgan cherri pomidorining Fazilat navi hosildorlik ko'rsatkichlari
(2022-2024 yy.)

Yetishtirishning texnologik usuli	Hosildorlik, t/ga				Qo'shimcha hosil	
	2022 y.	2023 y.	2024 y.	o'rtacha	nazoratga nisbatan, tonna	nazoratga nisbatan, %
Ochiq dala (nazorat)	32,4	39,3	36,9	36,2	-	100
Egatlar ustidan soyalatish	34,3	41,7	39,1	38,4	2,2	106
Tirgovuchlar yordamida o'qitish	36,2	44,0	41,3	40,5	4,3	111,8

Tirgovuchlar + setka bilan soyalatish	38,9	47,3	44,3	43,5	7,3	120,1
Shpalera o'qirish	39,8	48,4	45,3	44,5	8,3	123
Shpalera + setka bilan soyalatish	45,1	54,9	51,5	50,5	14,3	139,5
EKF05	0,46	0,62	0,69			
Sx (%)	0,36	0,43	0,45			

Nazorat variantida uch yillik o'rtacha hosildorlik 36,2 t/ga ni tashkil etdi. Shpalera + setka bilan soyalatish usulida 2022-yilda 45,1 t/ga, 2023-yilda 54,9 t/ga va 2024-yilda 51,5 t/ga hosil olindi.

Eng yuqori natija bergan variantda (shpalera+setka) nazoratga nisbatan 14,3 t/ga qo'shimcha hosil olindi, bu esa nazoratga nisbatan 139,5% samaradorlikni anglatadi.

Buxoro viloyatining quruq va issiq havosida ochiq dalada pomidor poyasining yer bag'irlab o'sishi mevalarning oftobda kuyishi va turli zamburug'li kasalliklarga chalinishiga sabab bo'ladi. Shpalera tizimi o'simlik poyasini yuqoriga yo'naltirib, quyosh nurlarining o'simlikning barcha qismlariga bir tekis tushishini ta'minlaydi.

Soyalatish to'rlari (setka) esa o'simlik atrofidagi haroratni 3-5 darajaga pasaytiradi, bu esa gullarning to'kilib ketishini kamaytirib, meva tugunchalari sonini 50,2 donagacha yetkazish imkonini bergan. Matematik tahlillar natijasida olingan EKF05 (0,46–0,69) ko'rsatkichlari olingan ma'lumotlarning ilmiy jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Cherry pomidorining "Fazilat" navini Buxoro sharoitida ochiq maydonda yetishtirishda shpalera va soyalatish to'rlarini birgalikda qo'llash eng yuqori iqtisodiy samarani beradi. Ushbu texnologiya o'simlikning biologik potentsialini

to'liq namoyon etishga imkon beradi va gektaridan o'rtacha 50,5 tonna hosil olishni kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Azimov, B.J., Azimov, B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. Toshkent. 2021.

Hamroyev R. Buxoro viloyatining ochiq maydonlarida pomidor yetishtirish agrotexnikasi. Agro-ilm jurnali, 5(12). 2022. - 45-48.

Jones J. B. Tomato Plant Culture: In the Field, Greenhouse, and Home Garden. 2020. CRC Press.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. (2023). Intensiv sabzavotchilik texnologiyalari bo'yicha tavsiyanomalar.

Srivastava A. K. Sustainable cultivation of cherry tomatoes in arid zones. Journal of Arid Agriculture, 18(3), 2022. - 210-222.